

TA'LIM SOHASIDA TURLI GLOBAL AXBOROT RESURLARIDAN FOYDALANISH

Ibroximova So'g'diyona Murodjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni
o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich

FarDU axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda internet vositalarining tutgan o'rni, global axborot resurslarini o'rganishning o'quvchi va o'qituvchilar uchun foydali tomonlari, ta'lim sohasiga qaratilayotgan imkoniyatlar, axborot resurslarini o'rganishda turli xil innovatsion metodlardan foydalanish va global internet ma'lumotlarini o'quv jarayonida samarali qo'llash haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, CD-ROM, audio darsliklar, multimedia, videokonferensiyalar, telekommunikatsiya setlari, grafiklar, jadvallar.

KIRISH QISM:

Kun sayin hamma soha amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim etadi. Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida foydali vosita sifatida foydalanishga keng imkoniyat ochib beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil yo'nalish tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy qobiliyatini o'stirishda tutayotgan ta'siri va ahamiyati ortib borayotganligini inkor etolmaymiz. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi, xususan:

1. Axborot to'plashning yangi usullarini va ularni qo'llashni bilib oladilar;
2. Bolalarning fikrlash doirasi kengayadi;
3. Mustaqil ishlashning ahamiyati ortadi;
4. Bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy doirasini

kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyati va o'quvchilar ijodiy fikrlashini rivojlantirishda yangi sharoitlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshirish jarayonini hayot bilan uyg'unlashtirishga yo'l ochadi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda o'quvchi shaxsining butun qobiliyatlarini amalga oshirishga, kompyuter vositalari orqali ta'lim oluvchining axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quvchi shaxsini rivojlantirishning vositasiga aylantirish uchun o'qituvchining o'zi axborot texnologiyalari sohasida bilimga ega bo'lishi kerak. Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, xususan, M. V. Bulanova-Toporkova va boshqalar o'qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi savodxonligina quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;
- 4) axborot vositasida o'zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo'lishi;
- 5) o'zini refleksiyalash ehtiyojining bo'lishi;
- 6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o'zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o'qituvchining kompyuter savodxonligini kompyuterli texnologiya mazmunining asosiy qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- 1) Informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
- 2) Kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;
- 3) Zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;

Xususan, multimediya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni o'tkazish yaxshi natija beradi. Odatdagi darsda o'qituvchi yangi dars mazmunini tushintiradi, o'quvchilar esa tinglab, ko'rib, yod oladilar, kerakli yozuvlarni daftarlariga qayd qiladilar. Ular har qanday ma'lumotni tayyor holda qabul qiladilar. Aksincha, interfaollik o'quvchilarga o'qitish jarayoniga faol kirishishga imkon beradi. Bolalar shunchaki tinglamaydilar, ular savollar berib, o'z fikrlarini bildiradilar, o'quv materialining ba'zi qismlarini to'liqroq

anglab olishga intiladilar, muhokama qiladilar, kerakli xulosalarga ega bo'ladilar. Interfaollikda har ikki tomon: o'qituvchi ham, o'quvchilar ham faollik ko'rsatadi, birgalashib darsda qo'yilgan maqsadlarga erishadilar. Biron bir o'quvchi darsdagi asosiy maqsaddan chekkada qolmaydi. Hamma o'qiydi, hamma bir — birini o'qitadi.

Interfaol dars o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan an'anaviy o'qitish usullarining va yakka tartibdagi kompyuterli o'qitishning yaxshi tomonlarini birlashtiradi. Kompyuter o'qituvchining faol ko'makchisiga aylanadi. Kompyuter slaydlarini qo'llash evaziga interfaol darstar bilishga taqdim etiladigan axborot mazmuni bilan birga, ta'sirchanligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Dars mavzusini bayon qilishda o'qituvchi illyustratsiya sifatida slaydlardagi ma'kumotlarni kerak joylarda taqdim etib boradi. Rasmlar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, formulalar ovoz hamohangligida taqdim etilib, o'qituvchining izohlari bilan beriladi

Bundan tashqari, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofaviy ta'lim alohida o'rin egallaydi. Masofadan turib o'qitish bu inson o'zining bilim salohiyatini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda istaydiganlar, maktabga borish imkoniyati bo'lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo'l ochib beradi. Bu jarayonda xohlovchi o'z imkoniyatiga qarab muloqot qilish, qo'shimcha axborot yig'ish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masofali o'qitish hozirgi kunning barcha talablariga javob beradi, ayniqsa, ayrim sarf-xarajatlarni hisobga olmaganda, kunduzgi ta'limni barcha sistemalarini tashkil qilish mablag'lariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, ko'p yillar davomida sirtqi ta'lim asosan televedeniya, radio yoki matbuot orqali amalga oshirilmoqda. Lekin bularni amalga oshirish ko'pgina omillar hisobida qiyinchilik bilan amalga oshirilib kelindi, hamda yangi axborot texnologiyalari asosida masofali o'qitishni tashkil qilishning bir qator usullari mavjud: interfaol televedeniya, telekommunikatsiya, CD-ROM texnologiyasi asosida, o'quv radio va televedeniya, video lentalar va hokazo. So'ngi yillarda to'rt xil turdagi masofali o'qitish keng tarqalmoqda:

1. Interfaol televedeniya (two-way TV);
2. Axborot almashinuviga asoslangan kompyuterli telekommunikatsiya setlari (regional va global, internet);
3. Multimediali, interfaol rejimli, videokonferensiyalar o'tkazish imkoniga ega kompyuterli telekommunikatsiya setlari;
4. Birinchi va ikkinchi turlar kesimida.

Masofadan o'qitish bu Internet tarmog'i yordamida sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir. Masofadan o'qitishning asosiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir. Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Multimedia elektron darsliklar.

Shunday qilib, masofadan o'qitishda virtual kutubxonalar, onlayn videokonferensiyalar, darslar, Internet yordamida muloqot va ma'lumot olish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

XULOSA:

Axborot resurslari va global ma'lumotlardan foydalanish talabalarga ijodiy o'ylash, fan, texnika va madaniyat sohasiga o'z hissasini qo'shish, bajarayotgan ishiga mas'uliyatni his qilish imkonini beradi. Bunday ma'lumotlardan foydalanish orqali nafaqat o'quvchi va talabalar, balki o'qituvchilar ham yangi metodlar o'rganadi va o'z ustida ko'proq ishlash imkoniga ega bo'ladi. Natijada, ta'lim sohasi sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgaradi va sifatli o'quv muhiti yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов, Б. А. (2021). ЗАДАЧИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАДЕЖНОСТИ КЛАСТЕРНЫХ СИСТЕМ В НЕПРЕРЫВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ. EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL, 1(22), 15-19.

2. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43.

3. Akhmedov, B. A. (2021). DEVELOPMENT OF NETWORK SHELL FOR ORGANIZATION OF PROCESSES OF SAFE COMMUNICATION OF DATA IN PEDAGOGICAL INSTITUTIONS. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 113-117.